

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi bortkuzatuvchilarni bepul o'qishga qabul qilishini e'lon qiladi

2023 15 Mart

Uzbekistan Airways aksiyadorlik jamiyati bortkuzatuvchilik kasbini egallashni xohlovchi barcha qizlar uchun o'zining O'quv-mashg'ulot markazida boshlang'ich o'qitish jarayoni boshlanganini e'lon qiladi. O'quv-mashg'ulotlari uchun to'lov Uzbekistan Airways aviakompaniyasi tomonidan to'lanadi.

Hujjatlarni topshirish va ularni ko'rib chiqish faqat elektron ravishda amalga oshiriladi.

O'qish uchun tanlovda ishtirok etishni xohlagan nomzodlar anketa to'ldirishlari hamda quyida ko'rsatilgan hujjatlarning skanlangan nusxalarini tayyorlashlari va shaxsiy fotosurat bilan birgalikda hammasini ca.school@uzairways.com elektron manziliga yuborishlari zarur.

Nomzodlarning aviakompaniya xodimlari bilan aloqalari ta'minlanmagan. Taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish ijobiy natija bergan taqdirda nomzod telefon orqali suhbatga taklif qilinadi.

Nomzod taqdim etishi zarur bo'lgan hujjatlar:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarolik pasporti;
- Ish yoki o'qish joyidan ma'lumotnoma;
- Oliy yoki o'rta-maxsus ma'lumot diplomi (chet el diplomi bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida nostrifikatsiya qilingan bo'lishi kerak);
- Yashash joyidan ma'lumotnoma;
- Foto (4x6);
- Anketa.

Nomzodga qo'yiladigan talablar:

- Nomzod O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi va tugallangan oliy yoki o'rta-maxsus ma'lumotga ega bo'lishi kerak;
- Yoshi 18dan 30gacha (30 yoshdan oshganlar qabul qilinmaydi);
- Bo'yi 165 dan 175 santimetrgacha, kiyim o'lchami 36-40 (Yevropa o'lchovida);
- Normal tana massasi indeksi Kettle bo'yicha (18,5-24,9);
- Qaddi-qomati kelishgan va nozik, yurishda nuqsonlar bo'lmasligi kerak;
- Orasta soch turmagi yoki shakli, erta kallik belgilari, kesilgan joylar bo'lmagan, sochlar tabiiy rangga ega bo'lishi kerak (sochlar uzunligi kiyimning yoqasiga tegmasligi uchun orasta turmakda bo'lishi kerak);
- Ko'rinadigan nuqsonlar va assimetriyasiz yuz, teri toza bo'lishi kerak, yuz ifodalari hamda mimikalar ijobiy taassurot qoldirishi, muloqot qilish uchun qulay bo'lishi va har bir vaziyatda zarur bo'lgan his-tuyg'ularni ifodalashi kerak (tushunish, do'stona munosabat, g'amxo'rlik, hamdardlik);
- Lablar Fillerlardan holi tabiiy shakl va hajmda bo'lishi darkor;
- Tishlar tekis, toza, old tishlarda oq yoki sariq tish koronkalari bo'lmasligi lozim;
- Qo'llar parvarish qilingan bo'lishi zarur (manikyur bilan). Qo'lning shakli to'g'ri va mutanosib bo'lishi darkor, barmoqlari mavjud bo'lmaganlar (falanjlar) qabul qilinishi mumkin emas;
- Tananing ochiq joylarida chandiqlar, dog'lari va tabiiy belgilari, katta hollar, kuyish izlari va tatuirovkalar, pirsinglar mavjud bo'lsa nomzod qabul qilinmaydi;
- Qaddi-qomati kelishgan bo'lishi lozim.

Har qanday sababga ko'ra o'quv dasturini o'zlashtira olmagan, dars qoldirayotgan, intizomni buzgan, qo'pollik qilgan, tashqi ko'rinishi to'g'ri kelmaydigan nomzodlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinadi.

O'quv mashg'ulotlari Toshkent xalqaro aeroportidan uncha uzoqda bo'lmagan "Uzbekistan Training Center" MCHJda bo'lib o'tadi.

Anketani [havola](#) orqali yuklab olishingiz mumkin.